

BIR GURUH SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN QASDDAN BADANGA O'RTACHA OG'IR SHIKAST YETKAZISH JINOYATINI TERGOV QILISH XUSUSIYATLARI

Mamarajabov Sherzod Baxtiyor o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi 319 guruh kursanti
Mamajonov Sherzod Farxodovich
O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi Jinoyat huquqi kafedrasasi
katta o'qituvchisi

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola orqali mualliflar Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi va O'zbekiston Konstitutsiyasidan moddalarni, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatini kriminalistik tavsifini, jinoyat tushunchasini, jinoyat kodeksida ushbu jinoyat uchun ko'rsatilgan jinoiy javobgarlikni ko'rsatib o'tib huquqiy jihatdan mavzuni tahlil qilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat, badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish, deklaratsiya, kriminalistik tavsif, mehnat qobilyati, bir guruh shaxslar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье авторы представляют статьи Всеобщей декларации прав человека и Конституции Узбекистана, криминалистическую характеристику преступления умышленного причинения тяжкого вреда здоровью, совершенного группой лиц, понятие преступления, состав преступления. уголовная ответственность за данное преступление конкретизирована в УК РФ и проанализирована тема с правовой точки зрения.

Ключевые слова: Преступление, средней тяжести телесные повреждения, заявление, криминальная характеристика, трудоспособность, группа лиц.

АННОТАЦИЯ

В данной статье авторы представляют статьи Всеобщей декларации прав человека и Конституции Узбекистана, криминалистическую характеристику преступления умышленного причинения тяжкого вреда здоровью, совершенного группой лиц, понятие преступления, состав преступления. уголовная ответственность за данное преступление конкретизирована в УК РФ и проанализирована тема с правовой точки зрения.

Ключевые слова: Преступление, средней тяжести телесные повреждения, заявление, криминальная характеристика, трудоспособность, группа лиц.

ANNOTATION

Through this article, the authors present the articles from the Universal Declaration of Human Rights and the Constitution of Uzbekistan, the criminalistic description of the crime of intentionally inflicting moderate serious bodily injury committed by a group of persons, the concept of the crime, and the criminal responsibility for this crime specified in the Criminal Code. and analyzed the topic from a legal point of view.

Key words: *Crime, moderately serious injury to the body, declaration, criminal description, ability to work, a group of persons.*

Inson hayoti, uning sog'lig' har qanday vaziyat va joyda bo'lmasin oliy ne'mat va daxlsizligi ta'minlamoq shart va majbur bo'lgan, davlat va uning organlariga yuklatilgan shonli vazifadir.

Fuqarolarning sog'lig'i va jismoniy daxlsizligi jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqining eng dolzarb vazifalaridandir. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 13-moddasida davlat fuqarolarni ularning hayoti, sog'lig'i, shaxsiy erkinligi va xavfsizligiga bo'ladigan g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qiladi.¹ deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emasligi"² mustahkamlab qo'yilgan.

Jahonda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi elektron manbaa: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: <https://constitution.uz/oz>

yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi³

Jinoyat bu yuridik tushuncha bo'lib, uning umumiy belgilari (alomatlari) JKning umumiy qismiga oid normalarda ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi⁴

Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyat kodeksi 105-moddasiga muvofiq: Sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo'lmagan va ushbu kodeksning 104-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarga olib kelmagan, lekin sog'liqning uzoq vaqt, ya'ni kamida yigirma bir kun, ammo to'rt oydan ko'p bo'lmagan davrda yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining o'n foizidan o'ttiz uch foizigacha yo'qolishiga sabab bo'lgan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.⁵

Bugungi kunda shaxs sog'lig'iga qarshi jinoyatlarni tahlil qilishda ayblanuvchining xatti-harakatini to'g'ri baholash va bu harakatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlash muhim o'rin tutadi.

Jinoyatning tarkibini aniqlashda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchilarning turiga qarab kriminalistik tavsif elementlarining ahamiyatlilik darajasi ham turlicha bo'ladi. Bu holat sodir etilgan jinoyatning turi, sodir etgan shaxslarning doirasi, jinoyat sodir etilishiga ko'maklashadigan vositalardan foydalanish va shu kabi boshqa omillarga bog'liq. Masalan, qasddan sodir etilgan jinoyatlarga kriminalistik ta'rif berishda jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish usullari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Biroq, ehtiyotsizlik orqasidan sodir etilgan jinoyatlarga mazkur unsur bo'lmaydi.

Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi birinchidan mazkur tur (guruhga) oid jinoyatlarga tegishli ravishda odatiy kriminalistik vaziyatlar ochiladi. Tergov vaziyatidan kelib chiqqan holda taxmin qilinadi hamda tergov harakatlari va operativ-qidiruv tadbirlari amalga oshiriladi. Shunday qilib, odatiy (tipik) criminal vaziyatlarni aniqlash tergov yo'nalishini to'g'ri belgilashga, samarali ilmiy-texnikaviy usul va vositalar hamda taktik uslublarni qo'llash va pirovardida jinoyatlarni ochishga yordam beradi.

Jinoiy tajovuzning predmeti to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar ham kriminalistik ahamiyatga ega bo'ladi.

³ Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>

Жиноят криминалистик тавсифining muhim elementi, uni sodir etilishini tavsiflovchi ma'lumotlar hisoblanadi. Bunda jinoyat sodir etish usuliga jinoyat huquqiy tavsifni kриминалистик тавсифdan ajratish lozim.

Жиноят elementlarini aniqlash usul va vositalari butun tergov jarayonini tartibga soluvchi va taktik usullarni qo'llashning maqsadga muvofiqligi bo'yicha aniq mezon qo'yuvchi jinoyat-protsessual qonun tomonidan talab qilinadi.

Muayyan guruh (turdagi) jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rish, sodir etish va yashirish kabi xususiyatlarni umumlashtirish orqali kриминалистик тавсифlash ularni ochishning eng samarali taktik usullari va texnik vositalarini tanlashga ko'mak beradi.

Жиноятlarning turiga qarab kриминалистик тавсиф elementlarining ahamiyatlilik darajasi ham turlicha bo'ladi. Bu holat sodir etilgan jinoyatning turi, sodir etgan shaxsning doirasi, jinoyat sodir etilishiga ko'maklashadigan vositalardan foydalanish va shu kabi boshqa omillarga bog'liq.

Криминалистик nuqtai nazardan, jinoyat ham u tayyorlangan va sodir etilgan muhitning muayyan tarzda o'zgarishi bilan jinoyatlarni tergov qilish metodikasining umumiy qoidalari zarur.

Tergov amaliyotining ko'rsatishicha, jinoyatlarni muvaffaqiyatli tergov qilish uchun kриминалистик texnika va taktikaning umumnazariy qoidalarini bilishning o'zi kifoya emas. Bunda jinoyatlarni tergov qilishda shuni ta'kidlash lozimki, har qanday tergov harakatining taktikasi tergov qilinayotgan jinoyatga bog'liq bo'ladi.

Криминалистика nazariyasida jinoyatlarni kриминалистик тавсифi deganda, tur, guruh va alohida jinoyatni sodir etish usuli, mexanizmi va o'ziga xos sharoiti kabi kриминалистик ahamiyatga ega alomatlarda o'z aksini topgan hamda jinoyat subyektining shaxsi va boshqa holatlar, muayyan jinoiy harakat va nihayat jinoyatlarni ochish, tergov qilish cva oldini olish bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda hal qilishni ta'minlash tushuniladi.

Qisqa qilib aytganda, jinoyatlarning kриминалистик тавсифi ijtimoiy xavfli qilmish to'g'risida shunday ma'lumotlar majmuini o'z ichiga oladiki, u jinoyatlarni tez va to'la ochishga imkon beradi.

Жиноятlarning kриминалистик тавсифi, jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rish, sodir etish va yashirish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Chunonchi, agar tergovchi jinoyat izlarini yashirish bo'yicha jinoyatchilar tomonidan qo'llanilgan barcha usullar to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lsa, unga jinoyatlarni ochish oson kechadi, shuningdek ashyoviy dalillarni yig'ish va jinoyatchining shaxsini aniqlash yetarlicha samara beradi. *жиноятларга тайёргарлик кўриш, содир этиш ва яшириш тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олади.*

Жиноятlarning kриминалистик тавсифi tergov amaliyoti, sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi materiallarni o'rganish va ilmiy umumlashtirish asosida amalga oshiriladi¹.

Turlari bo'yicha kriminalistik tavsif – harakatchan (dinamik), kriminalistik amaliyotga bog'liq tarzda o'zgarib turuvchi mezondir. Masalan, jinoyatlarni sodir etish, yashirish, shuningdek bir guruh (tipdagi) jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'luvchi sabab va shartlar borgan sari hiyla-nayrangga asoslanib bormoqda. Shhunga muvofiq tarzda jinoyatlarning turga oid kriminalistik tavsiflari ham o'zgarmoqda.

Tergov amaliyotining ko'rsatishicha, ba'zi jinoyatlar, ayniqsa, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar boshqa jinoyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday hollarda jinoyatlar orasidagi o'zaro bog'liqlik jinoyatlarning kriminalistik tavsifini chuqurroq ochish imkonini beradi.

Jinoyatlarni muvaffaqiyatli ochish uchun jinoyatlarni yashirishning tipik usullari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar, tuynuklarni ko'rishning odatiy usullari, ishtirokchilar bilan noqonuniy aloqa qilish usullari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Jinoyatchining shaxsi ham kriminalistik qiziqish uygo'tadi. Jinoyatchining bir qator shaxsiga oid sifatleri – jinoyatchining kasbiy ko'nikmalari (o'g'ri, kissavur, firibgar, va hokazo) jinoyat sodir etishning muayyan usul va vositalarida namoyon bo'ladi, ya'ni jinoyat sodir etish joyida muhimdir.

Jinoyatlarni kriminalistik tavsiflashning elementi bo'lib, mazko'r guruh, (tur)dagi jinoyatlarni sodir etishning eng ko'p tarqalgan sabab va maqsadlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar xizmat qiladi. Mazkur guruh (tur)dagi jinoyatlarni sodir etishning eng ko'p tarqalgan sabab va maqsadlari to'g'risidagi ma'lumotlar jinoyatning subyekti va subyektiv tomoni to'g'risidagi tuzilmalarni ilgari surish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, kriminalistik tavsifning elementi bo'lib, mazkur guruh (tur)dagi jinoyatlarni sodir etishga yordam beruvchi odatiy hollar to'g'risidagi ma'lumotlar majmuasi bo'lishi zarur.

Jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olishda kriminalistik uslubiy (metodik) tavsiyadan foydalanishda qulaylik tug'dirish uchun xususiy metodikalarning amaliy (konstruktiv) birligi, ya'ni ichki mustaqillik va ko'pvariantlilikka, ya'ni ularni eng munosib tarzda ko'rish prinsipiga rioya qilinadi. Jinoyat qonuniga nisbatan xususiy metodikalar:

a) tipik (turlarga oid) - jinoyat turlariga ko'ra tuzilgan;

b) o'ziga xos boshqa asoslarga ko'ra ko'rilgan, masalan asos sifatida jinoyat sodir etilgan joy, jinoyatchi shaxsi va shu kabilar (temir yo'll, suv, havo transportlarida sodir etilgan jinoyatlarni, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan, retsdivist jinoyatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish metodikasi) asos sifatida olinishi mumkin.

Aniqlashtirish darajasiga ko'ra metodikalar **bir bosqichli, ikki bosqichli, detallashtirish** kabilarga bo'linadi .

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyatining kriminalistik tavsifi - mazkur jinoyatni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning muhim belgilari bilan bog'liq ma'lumotlar yig'indisi bo'lib mazkur jinoyatlarning samarali qilishini belgilab beradi.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladigan qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish jinoyati kriminalistik tavsifining tarkibiy qismlari uning ijtimoiy xavfliligi, jinoyatni sodir etish usullari va ularning qo'llanilishini ko'rsatuvchi alomatlarda, shuningdek ularning qo'llanilishini ko'rsatuvchi alomatlarda, shuningdek ularning sodir etish vaqti, jinoyatchining shaxsi va boshqa dalillarda namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi elektron manbaa:
<https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa:
<https://constitution.uz/oz>
3. Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>